

O'zbekiston Prezidenti Hindistonning Gujarat shtati delegatsiyasini qabul qildi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 22-oktyabr kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Hindiston Respublikasi Gujarat shtati bosh vaziri Vijay Rupani boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Prezidentimiz mehmonlarni samimiyligini qutlar ekan, O'zbekiston bilan Hindiston o'rtaqidagi ko'p qirrali hamkorlik izchil rivojlanayotgani, do'stlik va strategik sheriklik mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidladi.

Muntazamlik kasb etgan oliy darajadagi muloqotlar, jumladan, o'tgan yilning oktyabr oyida Dehli shahriga va joriy yil yanvar oyida Gandinagar shahriga (Gujarat shtatining ma'muriy markazi) amalga oshirilgan tashriflar ikki tomonlama ko'p qirrali munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilgani qayd etildi.

Vijay Rupani, o'z navbatida, davlatimiz rahbariga samimiyligini qabul uchun minnatdorlik bildirdi hamda Hindiston Bosh vaziri Narendra Modining salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Yuqori martabali mehmon Gujarat shtati delegatsiyasining tashrifi doirasida Andijon, Samarqand, Buxoro va Toshkentda o'tgan uchrashuv va muzokaralar, avvalo, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni keng ko'lamda amalga oshirishga ko'maklashishga qaratilganini ta'kidladi.

O'zbekiston bilan Hindiston o'rtaqidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish istiqbollari ko'rib chiqildi.

Biotexnologiyalar va agroklasterlar, to'qimachilik, farmatsevtika sanoati, avtomobillar uchun butlovchi qismlar va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish, mehmonxona infratuzilmasini boshqarish kabi sohalarda va boshqa yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Joriy yil O'zbekistonda birgalikda ochilgan oliy ta'lim muassasalarida va Hindistonning yetakchi oliy ta'lim dargohlari negizida talab yuqori bo'lgan muhandislik-texnik mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlash hamda ta'lim sohasi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston hamda Gujarat shtatining yetakchi kompaniya va tashkilotlari o'rtaida samarali sheriklikni rivojlantirish bo'yicha qo'shma "yo'l xaritasi"ni tez fursatda ishlab chiqishga kelishib olindi.

Uchrashuv so'ngida Vijay Rupani mamlakatlarimiz o'rtaida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va xalqlarimiz do'stligini mustahkamlashda har tomonlama ko'maklashishga tayyor ekanini ta'kidladi.

[O'zA](#)